

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA

“QISASI RABG‘UZIY” ASARIDA QO‘LLANGAN FRAZEMALAR TADQIQI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Farmonova Umida Maxsutaliyevna

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan frazemalar tadqiqi.....3

Farmonova Umida Maxsutaliyevna

An investigation of phrasemes used in “Qisasi Rabghuzi”25

Farmonova Umida Maxsutaliyevna

Исследование фразем, использованных в произведении “Кисаси Рабгузи”.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ54

Qo‘shimcha

Appendixes

Приложения.....56

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA

“QISASI RABG‘UZIY” ASARIDA QO‘LLANGAN FRAZEMALAR TADQIQI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.4.PhD/Fil4010 bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rozikova Gulbaxor Zaylobidinovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich
filologiya fanlari doktori, professor

Mamatov Abdug'afur Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning «13» 09 2025-yil soat 8:00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (993873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (565 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi 19-uy, Ferghana, 100151, Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «02» 09 kuni tarqatildi.

(2025-yil «02» 09 da 45 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.G.Sabirdinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.T.Abdupattoyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

M.Y.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, qadimgi yozma yodgorliklardagi qarashlarning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatini o'rganish sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu sohada mutaxassislar til va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni, tarixiy yozma manbalarda aks etgan tilning o'zgarishlarini tahlil qilishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Ayniqsa, qadimgi yozma yodgorliklarning til xususiyatlarini o'rganish yo'nalishida chuqur izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu jihatdan tarixiy yozma manbalarda qo'llangan frazeologik birliklarni tadqiq etish g'oyat muhim sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy asarlarda qo'llanilgan frazemalar bo'yicha izohli lug'atlar tuzish soha rivojiga muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida kognitiv asoslar va konseptual yondashuvlar yordamida frazeologik ma'no shakllanishining chuqur tahlili amalga oshirilgan, chunki frazeologik birliklarning sinxron (zamonaviy) va diaxron (tarixiy) jihatdan o'rganilishi ularning lisoniy tizimdagi o'rni va taraqqiyotini keng miqyosda tasavvur qilish imkonini beradi. Biroq tarixiy manbalardagi frazeologik birliklar, xususan "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi iboralar tilshunoslikda yetarlicha tadqiq etilmagan. Ularning ma'noviy va grammatik xususiyatlari, shuningdek hozirgi o'zbek tiliga munosabatini tadqiq etish tilimizning tarixiy taraqqiyotini, frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini, shuningdek, til tizimidagi struktur-semantik o'zgarishlarini tahlil qilishda alohida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo bu asarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan to'liq va chuqur tahlil qilish davom ettirilmoqda. Ushbu asar nafaqat XIII-XIV asrlar adabiy tilini, balki turkiy tillarning umumiy rivojlanishini yorituvchi qadimiy yozma yodgorlik sifatida muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilshunosligida, ayniqsa, frazeologiya sohasida, ushbu davr manbalarining til xususiyatlarini o'rganish va ularni zamonaviy o'zbek tili bilan taqqoslash orqali tilning evolyutsion jarayonini tahlil qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa kelgusi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlar ochish, tarixiy frazeologik lug'atlarni yaratish va davriy asosda frazemalarning rivojlanishini o'rganish imkoniyatini beradi. Binobarin, "...milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash"¹ lozim. Shu jihatdan, Oltin O'rda adabiy muhitida yuzaga kelgan turkiy tildagi adabiy-tarixiy yodgorliklar matnidagi frazemalarni ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish muhimdir. Zero, "turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ajdodlarimiz, otabobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalari, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar"². Demak, qadimgi yozma yodgorliklar tilini o'rganish zarurati zamonaviy yondashuvlarga asoslangan chuqur tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Bu

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги "Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади" мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь.

² Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // "Халқ сўзи", 2019 йил, 22 октябрь.

yo‘nalishdagi izlanishlar doirasi qanchalik keng bo‘lmasin, ular tilshunoslikning asosiy o‘rganish obyekti hisoblangan til birliklarining umumiy va xususiy jihatlarini to‘liq yoritib bergan deb bo‘lmaydi. Xususan, “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan frazeologik birliklar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, bu birliklarning boshqa til birliklari bilan o‘zaro munosabatga kirishuvida yuzaga keladigan aloqalarni monografik o‘rganish hamda nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ–2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ–2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining nisbatan to‘liq nusxalari yuzasidan o‘zbek va chet ellik olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur ilmiy merosning katta qismi N.F.Ostroumov, P.M.Melioranskiy, N.F.Katanov, Y.Shinkevich, Abdurauf Fitrat, S.E.Malov, U.Mirzakarimova, B.Sarimsoqov, A.Hayitmetov, E.Fozilov, I.Haqqulov, I.Ostonaqulov, T.R.Xo‘jayev, M.Jo‘rayev, Aysu Ata, H.Dadaboyev, N.Xusanov, A.Xaliullina, A.Abrajeyev, B.Abdushukurov, P.Zohidov, N.Jabborov, Sh.Turdimov, M.Jo‘rayeva, Z.Shukurova, D.Sagdullayeva³ singari atoqli rus, turk, o‘zbek va xorijiy turkiyshunoslar tomonidan tadqiq etilgan.

³ Остроумов Н. Труды студентов. – Казан: Университетская типография, 1874; Мелиоранский П.М. Сказание о пророке Салихе (Из Кысасу-ль-Энбия Рабгузи) // المظفورية – Сборник статей учеников профессора барона Виктора Романовича Розена ко дню двадцатипятилетия его первой лекции, 13 ноября 1872. СПб. Санктпетербургъ, 1897. – С.298-308; Катановъ Н.Ф. Мусульманские легенды. Тексты и переводы // Записки Императорской Академии наук. Т.75. Санктпетербургъ, Приложение, 1894. – №3. – С.1-44; Schinkewitsch Y. Rabguzis Syntax. – MSOS II. 1926; Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент-Самарқанд: Ўзнашр, 1928; Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд (Нашрга тайёрловчи О.Хамроева). – Тошкент, 2013; Малов С.Е. Мусульманские сказания о пророках по Рабгузи // Записки коллегии востоковедов при Азиатском музее АН СССР. Том V. Л.: Издательство АН СССР, 1930. – С.507-525; Мирзакаримова У. Морфологические особенности “Кисаси Рабгузи”: Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1969; Саримсоков Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Тошкент: Фан, 1978; Хайитметов А. Ўзбек насри ҳақида. – Тошкент: Фан, 1982; Фозилов Э.И. XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили (Морфология). – Тошкент: Фан, 1986; Ҳаққулов И. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Юлдузча, 1989; Останақулов И. Қисас-ар-Рабғузий – адабий асар: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Хўжаев Т.Р. XV аср биринчи ярми ўзбек адабиёти ва фольклор: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1996; Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналарининг тарихий асослари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1996; Aysu Ata. Nasriddin bin Burhaneddin Rabguzi. Kasasu'l-Enbiya. –

Jahon tilshunosligida Sh.Balli, L.P.Smit, N.M.Shanskiy, S.G.Gavrin, V.P.Jukov, V.L.Arhangelskiy, R.N.Popov, V.V.Vinogradov, B.A.Larin, E.D.Polivanov, V.N.Teliya, A.V.Kunin⁴ kabi olimlar leksikadan farqli ravishda frazeologik ma'no g'oyasini fanga olib kirdilar va uni rivojlantirdilar.

Turkiy tillar frazeologiyasining shakllanishida Mirza Kozimbek, Y.D.Polivanov, B.Cho'ponzoda, S.K.Kenesboyev, Sh.U.Rahmatullayev, B.Chobanzade va F.Agayev, A.Abdullayev, M.Xoliqova, X.Shamsiddinov, A.Mamatov, K.Bozorboyev, A.Abdusaidov, B.Jo'rayeva, Sh.Abdullayev, B.Yo'ldoshev, M.Vafoyeva, G'.Ismoilov, Sh.Ganiyeva, I.O'razova⁵ kabi tilshunoslarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega.

Ankara, 1997; Дадабоев Х. “Қисаси Рабғузий”нинг лексик хусусиятлари ҳақида // Марказий Осиё олимларининг ўрта аср илмларига қўшган ҳиссаси. – Тошкент, 1999. – Б.17-23; Дадабоев Х. “Қисаси Рабғузий”даги аёл семали лексемалар хусусида // Филология фани: янги аср муаммолари. – Тошкент, 2003. – Б.125-128; Дадабоев Х. “Қисаси Рабғузий” тилидаги туркий лексемалар семантикаси // Второй международный тюркологический конгресс. Современная тюркология: теория, практика и перспективы. I. Болим. Туркестан, 2006. – Б.90-93; Дадабоев Х. “Қисаси Рабғузий”да қўлланган *сағ* феълининг семалари хусусида // Ўзбек тилшунослиги масалалари (Илмий мақолалар тўплами). – Тошкент, 2006. – Б.22-25; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидagi антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2000; Халиуллина А. Графо-фонетические и морфологические особенности тюркоязычного письменного памятника XIV в. “Қисас ал-анбия” Насредина Рабғузи: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Казань, 2002; Абражеев А. Сложные предложение (гипотаксис) в прозе “Қисасул-анбия” Рабғузии – писателя XIV века. Труды Узбекского государственного университета. – Самарканд, Вып. – №73. – С.125-140; Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. – Тошкент: Akademiya, 2008; Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Зоҳидов П. Рабғузий саодати // Тафаккур журнали, 2008. – №1. – Б.74-81; Зоҳидов П. Кун туғардин кун ботарга сўзи етган зот // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2017. – №9. – Б.2; Жабборов Н. Маърифат надир? – Тошкент: Маънавият, 2010; Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012; Жўраева М. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси: Филол. фан.б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Shukurova Z. “Qisasi Rabg'uziy” asari tahlili va matniy tadqiqi. – Toshkent: Yashil yarroq, 2021; Сагдуллаева Д. “Қисаси Рабғузий” асарида арабий жумла ва ўзлашмаларнинг структур-семантик таджикки: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2021.

⁴ Bally Ch. *Precis de stylistique*. – Geneve, 1905; Балли. Ш. Французская стилистика. – М., 1961; Smit.L.P. Фразеология английского языка. – М.: Учпедгиз, 1959; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1969; Гаврин С.Г. Заметки по теории фразеологии // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц: Мат-лы межвуз. симпозиума. – ТГПИ. 1972. – Вып. – №2. – С.127-142; Жуков В.П. Об устойчивости и вариантности на семантическом уровне // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц. Мат-лы межвуз. симпозиума. ТГПИ, 1972. – С.20-29; Архангельский В.Л. О задачах, объектах и разделах русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц. Мат-лы межвуз. симпозиума. ТГПИ, 1972. – Вып. – №2. – С.155-194; Попов Р.Н. Словообразование на почве фразеологических единиц // РЯИШ, 1973. – №5. – С.2-8; Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977; Ларин Б.А. Очерки по фразеологии. – М., 1977; Поливанов. Е.Д. Страницы жизни и деятельности. – М., 1988. – С.99-100; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа – Языки русской культуры, 1996. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа, Дубна: Изд. центр Феникс, 1996.

⁵ Казым-бек М.А. Общая грамматика турецко-татарского языка. Выпуск II. – Казань, 1846; Поливанов Е.Д. Введение в языковедение для востоковедных вузов. – Л., 1928; Чобанзаде Б., Агаев Ф. Турк грамери. – Баку, 1929; Кенесбаев С.К. К вопросу об экспрессивно-стилистических функциях фразеологизмов (на материале казахского языка) // Развитие стилистических систем литературных языков народов СССР. – Ашхабад, 1968. – С.205-211; Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978; Рахматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970; Рахматуллаев Ш. Лексикология билан фразеология. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. – Тошкент, 1992; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: 1992; Абдуллаев А. Фразеологизмнинг экспрессивлик хусусияти // Ўзбек тили ва адабиёти, 1976. – №5. – Б.36-39; Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине (на материале русского и узбекского языков): Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. –Ташкент, 1999; Шамсиддинов Х. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутки фразеологизмлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарканд, 2001; Абдусайдов А. Фразеологизмлар – матбуот тилида таъсирчан восита. – Самарканд: СамДУ, 2001; Бегматов Э., Абдусайдов А. Матбуот тилида фразеологик

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek tili tarixi masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida qo'llangan frazemalarni funksional-semantik jihatdan o'rganish, ularning zamonaviy o'zbek tiliga munosabatini aniqlash, frazemalar taraqqiyotidagi tuzilish va grammatik o'zgarishlarni tahlil etish hamda frazemalar rivojlanishiga xos bo'lgan kognitiv-semantik xususiyatlarni yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Qisasi Rabg'uziy" asarining til xususiyatlariga va frazeologik birliklarni tadqiq etishga bag'ishlangan izlanishlarni tavsiflash;

asar matnidagi frazemalarni jamlash va lingvostatistik tahlilini amalga oshirish;

frazeologik ma'no shakllanishidagi struktur-semantik yadro birliklarini ajratish;

asar matnidagi frazemalarni keyingi davr va hozirgi o'zbek tiliga nisbatan tahlil qilish;

frazeologik birliklarning rivojlanishidagi struktur-semantik o'zgarishlarni aniqlash, ularning sinonimik, variantdoshlik va antonimik munosabatlarini, shuningdek, frazemalardagi leksik qayta shakllanish jarayonlarini tahlil etish;

asar matnida qo'llangan frazeologik birliklarni leksik-semantik jihatdan tasniflash, ularni diaxron aspektida tahlil etish hamda tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan o'rganish;

frazeologik birliklarda lug'aviy (denotativ) ma'nolarning konnotativ asosida shakllanish jarayonlarini aniqlash;

frazemalarni struktur-grammatik jihatdan tahlil etish hamda ular asosida frazeologik modellarni belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida 2022-yilda "O'zbekiston" nashriyoti tomonidan lotin alifbosida chop etilgan "Turkiy adabiyot durdonalari" nomli 100 jildlik kitoblar turkumining 5-jildi olindi. Mazkur jild Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asariga bag'ishlangan bo'lib, u nasriy shaklda taqdim etilgan. Asar matnini H. Dadaboyev to'plab, nashrga tayyorlagan.

Tadqiqotning predmetini Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi frazeologik birliklarning semantik va konnotativ xususiyatlari, struktur-grammatik tuzilishi, frazeologik modellar tizimi hamda frazeologik ma'noning shakllanishida ishtirok etadigan struktur-semantik yadro va kognitiv-semantik omillar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda lingvostatistik, sistem-struktur, tasnifiy va tavsifiy usullar bilan bir qatorda, qiyosiy-tarixiy yondashuv, komponent

неологизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. – №1. – Б.23-27; Жўраева Б. Мақол ва ибора орасидаги маъновий фарқ // Педагогик маҳорат. – Бухоро, 2004. – №1. – Б.38-42; Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (У.Кайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006; Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд: СамДУ, 2007; Вафоева М.И. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Исмаилов Ғ. Фразеологик birlikларда сонларнинг ифодаланиши (ўзбек, қозоқ ва қорақалпоқ тиллари мисолида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. – №4. – Б.9-13; Исмаилов Ғ. Фразеологизмларда оқ ва қора концептларининг идиоэтноик белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №3. – Б.78-85; Ганиева Ш.А. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013; Ganiyeva Sh. Xalq iboralarining sintagmatik xususiyatlari. – Farg'ona: FarDU, 2022; O'razova I. XIV asrning II yarmiga oid turkiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2022.

tahlil, modellashtirish metodlari, shuningdek, kognitiv, semantik va sintaktik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

frazeologik birliklar yuzasidan jahon va o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilinib, bu sohadagi muammolar belgilangan; "Qisasi Rabg'uziy" asarida qo'llangan frazeologik birliklarning statistikasi keltirilgan, ushbu davr tiliga xos *tili aqir, tilga yuqul, til alquci, tili tebran-, yuzun tut-, ernaklarin tishla-, alp yuraklik, koqnilni xush tut-, jan oyna-, emgatu basla-, bas ber-, ilkinda qal-, farah ber-, la'natdin kuzar-, rahm koqnil, ofkasi och-* kabi eng muhim frazeologik birliklar aniqlangan;

asarda qo'llangan *koz, bas, til, aqiz, yuz, qol, barmaq, yurak, bagir, opka, ayaq, qas, boyin, qulaq, koqnil* kabi somatik tarkibli hamda *soz, jan, yol* kabi tayanch komponentli frazeologik birliklarning semantik va uslubiy xususiyatlari yoritilib, *uminch ber-, xush kel-, aqigi kel-, balaga ilin-* kabi shaxsning ruhiy holati va *imannga kizur-, aqiz och-, rozasin buz-* kabi diniy tushunchalar bilan bog'liq frazeologik birliklar asoslangan;

asar matnidagi frazemalar keyingi davr tiliga va hozirgi o'zbek tiliga munosabati nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, frazemalar taraqqiyoti davomida yuz bergan struktur-semantik o'zgarishlar, xususan hozirda qo'llanishda bo'lmagan, hech qanday o'zgarishsiz qo'llanadigan, ayrim tovushlari o'zgargan va leksik qayta shakllangan frazemalar aniqlangan; ma'no ko'chishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, parafraza kabi hodisalari hamda sinonimik, antonimik, omonimik, variantdoshlik, polisemantik munosabatlar dalillangan;

asarda qo'llangan frazemalar struktur-grammatik jihatdan tahlil qilingan, sintaktik tuzilishiga ko'ra *jan al-, ahdni buz-* kabi birikmaga va *tili bir, koqli yumshaq* kabi gapga teng; komponentlar tarkibiga ko'ra *kozumniq qaraqigi, qatig koqnil* kabi ikki komponentli, *aqiz ochgu vaqt* kabi uch komponentli, *sozni sir ichinda tut-* kabi to'rt komponentli va *oz azaqi birla olumga kel-* kabi besh komponentli frazeologik birliklar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

frazemalarni diaxronik jihatdan o'rganish va eskirgan frazeologik birliklarni aniqlash hamda to'plash frazeologik fondning boyishida muhim omil ekanligi lingvostatistik tahlil asosida isbotlangan;

frazemalarning shakllanishi va semantikasida muhim ahamiyat kasb etuvchi belgilarni aniqlash, ularni semantik jihatdan tasniflash va tahlil qilish, shuningdek, frazeologik modellarni belgilash muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan;

har bir tarixiy davrning frazeologik birliklari tarkibida o'sha davr tiliga xos bo'lgan leksik va struktur-semantik xususiyatlar aks etishi, ushbu belgilarning frazemalar semantik yadrosi bilan uzviy bog'liqligi keyingi davr tiliga o'zgarishsiz yoki oz miqdorda o'zgargan holda o'tishi lingvistik tahlillar orqali ilmiy asosda dalillangan;

frazeologik ma'noning shakllanishida yadro birliklar muhim struktur-semantik o'rin egallashi, yadro birliklarning, ko'pincha, ko'p ma'noli so'zlar bilan ifodalanishi, yadro birliklarning leksik-semantik faolligi va ma'no markazida turish holati tilning tarixiy rivojlanish bosqichlariga muvofiq o'zgarib borishi nazariy jihatdan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, til avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlikni ta'minlovchi muhim vosita ekani, o'zbek adabiy tili tarixi, taraqqiyot bosqichlarining ilmiy asosda yoritilgani, qadimgi yozma yodgorliklarni o'rganish borasidagi metodologik yondashuv, ilmiy-nazariy,

funksional-semantik, qiyosiy va tarixiy usullardan foydalanilgani, asar leksikasining ilmiy konsepsiyalar va nazariy qarashlar yordamida tahlil qilinganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari qiyosiy-nazariy usullar yordamida yechilganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan frazeologik birliklarning leksik-semantik, sintaktik jihatdan tahlil etilganligi, bu jarayonda ilgari surilgan masalalar zamonaviy tilshunoslik asoslari va frazeologiyaning nazariy yutuqlari bilan mustahkamlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan universitetlarning o‘quv jarayonida til tarixi bo‘yicha darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratishda, o‘zbek tilida tuziladigan izohli va frazeologik lug‘atlarni boyitishda, frazemalarning etimologik lug‘atini tuzishda, shuningdek, ayni mavzu doirasida oliy o‘quv yurtlari talabalariga maxsus kurs va seminarlar o‘tishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqotning nazariy takliflari, amaliy tavsiyalari va xulosalari quyidagilarda tatbiq etilgan:

asarda qo‘llangan *köz, baš, til, ağız, yüz, qol, barmaq, yüräk, bağır, öpkä, ayaq, qaş, boyın, qulaq, köñül* kabi somatik tarkibli hamda *söz, jän, yol* kabi tayanch komponentli frazeologik birliklarning semantik va uslubiy xususiyatlari yoritilib, *üminç ber-, xuş kel-, ačığı kel-, balāğa ilin-* kabi shaxsning ruhiy holati va *imānğa kizdür-, ağız ač-, rozasın buz-* kabi diniy tushunchalar bilan bog‘liq frazeologik birliklar asoslanganligi xususidagi xulosalardan “O‘zbek milliy raqs san‘atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb-sayt multimedia mahsulotlari (elektron lug‘atlar) to‘plamini yaratish” mavzusidagi F3-2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, “O‘zbek folklor san‘ati terminlarining qisqacha o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasining 2024-yil 4-noyabrdagi 1/04 – 137-son ma‘lumotnomasi). Natijada elektron lug‘at materiallari yangi ilmiy manba va qarashlar bilan boyigan;

asar matnidagi frazemalar keyingi davr tiliga va hozirgi o‘zbek tiliga munosabati nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, frazemalar taraqqiyoti davomida yuz bergan struktur-semantik o‘zgarishlar, xususan hozirda qo‘llanishda bo‘lmagan, hech qanday o‘zgarishsiz qo‘llanadigan, ayrim tovushlari o‘zgargan va leksik qayta shakllangan frazemalar aniqlanganligi; ma‘no ko‘chishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, parafraza kabi hodisalari hamda sinonimik, antonimik, omonimik, variantdoshlik, polisemantik munosabatlar dalillanganligi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Millat va ma‘naviyat” eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali”ning 2024-yil 4-noyabrdagi 26-36-918-son ma‘lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari bugungi yosh avlodning ajdodlarimiz ma‘naviy merosini puxta o‘rganish bo‘yicha bilimlarini oshirishga xizmat qilgan;

asarda qo‘llangan frazemalar struktur-grammatik jihatdan tahlil qilinib, sintaktik tuzilishiga ko‘ra *jän al-, ahdni buz-* kabi birikmaga va *tili bir, köñli yumşaq* kabi gapga teng; komponentlar tarkibiga ko‘ra *közümniñ qaračığı, qatığ köñül* kabi ikki komponentli, *ağız ačğu vaqt* kabi uch komponentli, *sözni sir içindä tut-* kabi to‘rt

komponentli va *öz azaqi birlä ölümgä kel-* kabi besh komponentli frazeologik birliklar aniqlanganligiga oid xulosalardan O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarida, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida, adabiy muloqot va targ‘ibot ishlarida muhim nazariy va amaliy manba sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 20-noyabrdagi 01-03/925-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari barkamol shaxsni tarbiyalash va ular ongiga milliy istiqloq g‘oyasini singdirish, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni ona tiliga va ajdodlar merosiga cheksiz hurmat hamda sadoqat ruhida tarbiyalash masalalarida muhim asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi 171 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijasi va ularning ishonchliligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati va ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Ishning birinchi bobi **“Qisasi Rabg‘uziy” asari va frazemalar tadqiqi**” deb nomlangan bo‘lib, uning dastlabki fasli *“Qisasi Rabg‘uziy” asari: talqin va muammolar*” deb nomlanib, unda asarning yaratilish tarixi, qo‘lyozma va toshbosma nusxalari, tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilishi, bu boradagi tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining eng qadimgi qo‘lyozma nusxasi XV asrda ko‘chirilgan bo‘lib, bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanib kelmoqda⁶. Ushbu nusxaning faksimilesi matnshunos olim Gronbek tomonidan 1948-yili Kopengagenda nashr qilingan. Qo‘lyozma jami 500 sahifadan iborat bo‘lib, u 250 varaqni tashkil qiladi. Sahifalar an’anaviy sharq qo‘lyozmalariga xos tarzda 1r (recto) va 1v (verso) shaklida raqamlangan⁷. Asar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Qozon hamda Toshkent shaharlarida litografiya usulida bir necha bor chop etilgan. Asarning to‘liq matni ilk bor N.I.Ilminskiy tomonidan nashr qilingan. Mazkur nashr nisbatan keyinroq ko‘chirilgan nusxaga asoslangan bo‘lib, til jihatidan ancha yangilangan edi. Keyingi nashrlarda esa asar tili juda ham o‘zgartirilgan bo‘lib, asl nusxasidan ancha

⁶ Abdushukurov B.B Eski turkiy adabiy til leksikasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2015. – B.4.

⁷ Рабғузий Носируддин Бурхонуддин. “Қисаси Рабғузий” биринчи китоб (масъул муҳаррир Н.А.Асилова; сўзбоши муаллифи Э.Фозилов; нашрга тайёрловчилар А.Юнусов, Ҳ.Дадабоев). – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б.8.

uzoqlashib ketgan⁸. Bundan tashqari, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida asarning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari 1025, 7397, 1874 inv. raqamlarda saqlanadi⁹. O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida obidaning 13 ta, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat muzeyi fondida esa 2 ta qo‘lyozma nusxasi bor¹⁰. A.Xaliullina ilm olamida asarning 35 ta qo‘lyozmasi mavjudligini, shundan 19 tasi (1859-1911-yillarda nashr qilingan) Qozon kitob fondida saqlanishini qayd etadi¹¹.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarining nisbatan to‘liq nusxalari ustida o‘zbek va chet ellik olimlar keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Bu nodir yodgorlik turkiy xalqlarning diniy, ma‘naviy va adabiy merosini o‘rganishda bebaho manba sanaladi. Asar nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, tarixshunoslik va folklorshunoslik sohalari uchun ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur ilmiy merosning katta qismi N.F.Ostroumov, N.F.Katanov, P.M.Melioranskiy, S.E.Malov, Y.Shinkevich, Abdurauf Fitrat, E.Fozilov, T.R.Xo‘jayev, Aysu Ata, A.Abrajeyev, A.Xaliullina¹² singari turk va chet ellik olimlar ham asarni adabiyotshunoslik, tilshunoslik va uslubiyat nuqtayi nazaridan tadqiq etishgan.

Ma‘lumki, sho‘rolar davrida payg‘ambarlar qissalaridan iborat ushbu obidani chop etish va uni o‘rganish yuzasidan jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilmadi. Istiqloq yillarida bu boradagi ishlar birmuncha jonlandi. Jumladan, U.Mirzakarimova, B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, H.Dadaboyev, I.Ostonaqulov, M.Jo‘rayev, N.Xusanov, H.Safarova, P.Zohidov, N.Jabborov, Sh.Turdimov, M.Jo‘rayeva, B.Abdushukurov, Z.Shukurova, D.Sagdullayevalar tomonidan asar bo‘yicha bir qator maqolalar e‘lon qilindi, ilmiy izlanishlar olib borildi¹³.

⁸ Bu haqda qarang: Фозилов Э.И. XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили (Морфология). – Тошкент: Фан, 1986. – Б.10.

⁹ Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.179.

¹⁰ Фазылов Э. И. Туркология. II. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.383-384.

¹¹ Халиуллина А. Графо-фонетические и морфологические особенности тюркоязычного письменного памятника XIV в. “Кысас ал-анбия” Насреддина Рабгузи: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Казань, 2002. – С.6.

¹² Остроумов Н. Труды студентов. – Казан: Университетская типография, 1874; Катанов Н.Ф. Мусульманские легенды. Тексты и переводы // Записки Императорской Академии наук. Т.75. Санктпетербургъ, Приложение. – №3. 1894. – С.1-44; Мелиоранский П.М. Сказание о пророке Салихе (Из Кысасу-ль-Энбия Рабгузи) // المظ فريفة – Сборник статей учеников профессора барона Виктора Романовича Розена ко дню двадцатипятилетия его первой лекции, 13 ноября 1872. СПб. Санктпетербургъ, 1897. – С.298-308; Малов С.Е. Мусульманские сказания о пророках по Рабгузи // Записки коллегии востоковедов при Азиатском музее АН СССР. Том V. Л.: Издательство АН СССР, 1930. – С.507-525; Schinkewitsch Y. Rabguzis Syntax. – MSOS II. 1926; Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент-Самарканд: Ўзнашр, 1928; Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари, 1-жилд (Нашрга тайёрловчи О.Хамроева). – Тошкент, 2013. – Б.292; Фозилов Э.И. XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили (Морфология). – Тошкент: Фан, 1986; Хўжаев Т.Р. XV аср биринчи ярми ўзбек адабиёти ва фольклор: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1996; Aysu Ata. Nasruddin bin Burhaneddin Rabguzi. Kasasu'l-Enbiya. – Ankara, 1997; Абражеев А. Сложные предложение (гипотаксис) в прозе “Кисасул-анбия” Рабгузи – писателя XIV века. Труды Узбекского государственного университета. – Самарканд, Вып. – №73. – С.125-140; Халиуллина А. Графо-фонетические и морфологические особенности тюркоязычного письменного памятника XIV в. “Кысас ал-анбия” Насреддина Рабгузи: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Казань, 2002.

¹³ Мирзакаримова У. Морфологические особенности “Кисаси Рабгузи”: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1969; Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётда сажъ. – Тошкент: Фан, 1978; Ҳаққулов И. Занжирбанд шер кошиди. – Тошкент: Юлдузча, 1989; Дадабоев Х. “Кисаси Рабғузий”нинг лексик хусусиятлари ҳақида // Марказий Осиё олимларининг ўрта аср илмларига қўшган хиссаси. – Тошкент, 1999. – Б.17-23; Дадабоев Х. “Кисаси Рабғузий”даги аёл семали лексемалар хусусида // Филология фани: янги аср муаммолари. – Тошкент, 2003. – Б. 125-128; Дадабоев Х. “Кисаси Рабғузий” тилидаги туркий лексемалар семантикаси // Второй международный тюркологический конгресс. Современная тюркология: теория, практика и перспективы. I. Болим. Туркестан, 2006. – Б.90-93; Дадабоев Х. “Кисаси Рабғузий”да қўлланган *саџъ* феълининг семалари хусусида // Ўзбек тилшунослиги масалалари (Илмий мақолалар

Bobning ikkinchi fasli “*Frazeologik birliklarning jahon tilshunosligida o‘rganilishi*” deb nomlanadi.

Frazeologiyani o‘rganish tarixiga nazar solsak, shuni alohida ta’kidlash joizki, frazeologiya atamasi dastlab adabiyotshunoslik zaminida vujudga kelgan. Bu atamani birinchi bor 1558-yilda ingliz adabiyotshunosi Neandr qo‘llagan¹⁴. Sh.Balli¹⁵ frazeologiya atamasini fan sifatida qo‘llagan bo‘lsa-da, uning mustaqil fan sifatida tan olinishi E.D.Polivanov¹⁶ tomonidan amalga oshirilgan. V.V.Vinogradov¹⁷ esa frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil bo‘limi sifatida ajratadi, A.V.Kunin¹⁸ frazeologik birliklarni “qisman yoki to‘liqligicha ko‘chma ma’noli so‘zlarning barqaror birikmasi” deb ta’riflaydi. V.L.Arxangelskiy, V.P.Jukov, R.N.Popov, V.M.Mokienko, S.K.Bashiyeva¹⁹ kabi olimlar frazeologik birliklarning leksik ma’nodan farq qiluvchi o‘ziga xos semantik tabiatini himoya qilishdi.

N.N.Amosova, A.M.Babkin va boshqalar so‘z bilan o‘zaro bog‘lanishli munosabatda bo‘lgan so‘z birikmalarining semantik o‘zgarishini; I.I.Cherdenseva, A.V.Kunin va boshqalar ham so‘z, ham gap bilan o‘zaro bog‘lanishli munosabatda bo‘lgan so‘z birikmalarining semantik o‘zgarishini; V.L.Arxangelskiy, N.M.Shanskiy va boshqalar yaxlit nominatsiyaga ega bo‘lgan semantik o‘zgarishga uchragan yoki uchramagan har qanday struktur-sintaktik tipli so‘z birikmalarini; M.M.Kopilenko, R.N.Popov leksemalar birikuvini; V.N.Teliya o‘zgarimas leksik tarkibli har qanday barqaror so‘z birikmalari frazeologiyaning obyekti ekanligini ta’kidlashadi²⁰.

тўплами). – Тошкент, 2006. – Б. 22-25; Останакулов И. Қисас-ар-Рабғузий – адабий асар: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналарининг тарихий асослари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1996; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2000; Сафарова Х. “Рабғузийнинг Қиссаи Юсуф Сиддик алайҳиссалом” манбалари ва ғоявий-бадий таҳлили”: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2001; Зоҳидов П. Рабғузий саодати // Тафаккур журнали, 2008. – №1. – Б.74-81; Зоҳидов П. Кун туғардин кун ботарга сўзи етган зот // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – №9. 2017. – Б.2; Жабборов Н. Маърифат надир? – Тошкент: Маънавият, 2010; Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012; Жўраева М. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси: Филол. фан.б. фалс. док.(PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Shukurova Z. “Qisasi Rabg‘uziy” asari tahlili va matniy tadqiqi. – Toshkent: Yashil yulqoq, 2021; Сагдуллаева Д. “Қисаси Рабғузий” асарида арабий жумла ва ўзлашмаларнинг структур-семантик тадқиқи: Филол. фан.б. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2021.

¹⁴ Bu haqda qarang: Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Лексикология ва фразеология). – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б.55.

¹⁵ Балли Ш. Французская стилистика. – М., 1961. – С.157

¹⁶ Поливанов Е.Д. Страницы жизни и деятельности. – М., 1988. – С.99-100.

¹⁷ Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. – С.267.

¹⁸ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа, 1996. – С.5.

¹⁹ Архангельский В.Л. О задачах, объектах и разделах русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц. Мат-лы межвуз. симпозиума. – ТГПИ. 1972 – Вып. – №2. – С.155-194; Жуков В.П. Об устойчивости и вариантности на семантическом уровне // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц. Мат-лы межвуз. симпозиума. – ТГПИ. 1972. – С.20-29; Попов Р.Н. Словообразование на почве фразеологических единиц // РЯНШ. 1973. – №5. – С.2-8; Мокиенко В.М. Образы русской речи. Историко-этимологические и этнолингвистические очерки. – Л.: ЛГУ, 1986; Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: Дисс... д-ра. филол. наук. – Нальчик, 1995.

²⁰ Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л., 1963; Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие и источники. – Л.: Наука, 1970; Черданцева Т.З. Экспрессивность пословиц и фразеологических единиц // Экспрессивность в языке и речи. Межвуз. сб. ст. – Смоленск, 1993. – С.45-52; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб. для ин-ов и фак. иностр. яз. – Дубна: Феникс, 2005; Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. – Ростов-на-Дону. 1964; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1985; Копыленко М.М., Попова З.Д. Очерки по общей фразеологии. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1978; Попов Р.Н. Словообразование на почве фразеологических единиц // РЯНШ. 1973. – №5. – С.2-8;

Bobning uchinchi fasli “*Frazeologik birliklarning turkologiyada o‘rganilishi*” deb nomlangan.

Turkiy frazeologiyaning rivojlanishiga M.Kozimbek, Y.D.Polivanov, S.K.Kenesboyev va Sh.Rahmatullayev turkiy frazeologiyaning asoschilari sifatida salmoqli hissa qo‘shganlar. Ularning tadqiqotlari turkiy tillar frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiy etishida muhim o‘rin egallagan²¹.

Turkologiyada yaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar qatorida B.Chobanzade, F.Agayev, N.Mallayev, U.Tursunov, A.Abdullayev, A.Mamatov, M.Xoliqova, X.Shamsiddinov, K.Bozorboyev, A.Abdusaidov, B.Jo‘rayeva, Sh.Abdullayev, B.Yo‘ldoshev, M.Vafoyeva, G‘.Ismoilov, M.Mirtojiev, Sh.Ganiyeva²² kabi tilshunoslarning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega.

Frazeologizmlarni o‘rganish tarixida ularning tarixiy asarlar misolida tahlil qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon tilning qadimiy qatlamlarini, tarixiy taraqqiyotdagi o‘zgarishlarni hamda milliy madaniyat va ma‘naviy merosni yoritib beradi. Xususan, Z.Xolmanova, B.Abdushukurov, I.O‘razova, V.Abdullayeva, Z.Teshaboyeva²³ singari tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va nashr

Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996.

²¹ Казымбек М.А. Общая грамматика турецко-татарского языка. – Казань: Выпуск II, 1846; Поливанов Е.Д. Введение в языковедение для востоковедных вузов. – Л., 1928; Кенесбаев С.К. К вопросу об экспрессивно-стилистических функциях фразеологизмов (на материале казахского языка) // Развитие стилистических систем литературных языков народов СССР. – Ашхабад, 1968. – С.205-211; Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966; Нуткимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970; Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили (лексикология, фонетика, морфология), тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978; Рахматуллаев Ш. Рахматуллаев Ш. Лексикология билан фразеология // Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1992. – Б.49-186; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент, 1992.

²² Чобанзаде Б., Агаев Ф. Турк граммери. – Баку, 1929; Маллаев Н. Анъанавий муқаддимот ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1971. – №1. – Б.10-12; Турсунов У., Мухторов Ж., Абдуллаев А. Фразеологизмнинг экспрессивлик хусусияти // Ўзбек тили ва адабиёти, 1976. – №5. – Б.36-39; Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: 1991; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине (на материале русского и узбекского языков): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1999; Шамсиддинов Х. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари: Филол. фан. д-ри. дисс. ...автореф. – Тошкент, 1999; Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутки фразеологизмлари: Филол. фан. номз. дисс. ...автореф. – Самарқанд, 2001; Абдусайдов А. Фразеологизмлар – матбуот тилида таъсирчан восита. – Самарқанд: СамДУ, 2001; Бегматов Э., Абдусайдов А. Матбуот тилида фразеологик неологизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002. – №1. – Б.23-27; Жўраева Б. Мақол ва ибора орасидаги маъновий фарқ // Педагогик маҳорат. – Бухоро, 2004. – №1. – Б.38-42; Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (У.Кайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006; Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд: СамДУ, 2007; Вафоева М.И. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2009; Исмаилов Ф. Фразеологик birlikларда сонларнинг ифодаланиши (ўзбек, қозоқ ва қорақалпоқ тиллари мисолида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. – № 4. – Б.9-13; Исмаилов Ф. Фразеологизмларда оқ ва қора концептларининг идиоэтноик белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №3. – Б.78-85; Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2004; Ганиева Ш.А. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013; Ganiyeva Sh. Xalq iboralarining sintagmatik xususiyatlari. – Farg‘ona: FarDU, 2022.

²³ Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007; Abdushukurov B. “Bosh urar ming oh ila yuz ming darig‘...” // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. Murojaat vaqti: 14:35 / 09.02.2024; O‘razova I. XIV asrning II yarmiga oid turkiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi: Filol. f. nomz. ...diss. avto-ref. – Toshkent, 2022; Abdullayeva V. Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asar matnida frazeologiyalarning qo‘llanilishi // International journal of scientific researchers. Volume: 2, Issue:1, 2023. – B.311-318; Abdullayeva V. Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining til xususiyatlari, unda frazeologik iboralarining qo‘llanilish tadqiqi // International journal of scientific researchers. Volume: 3, Issue: 1, 2023. – B.49-53; Teshaboyeva Z. “Boburnoma”dagi frazeologik birliklarning o‘zbekcha-ruscha-inglizcha lug‘ati. – Toshkent, 2023.

etilgan maqolalar frazeologizmlarning kelib chiqishi, semantik rivojlanishi, obrazlilik darajasi hamda uslubiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan.

O'zbek frazeologiyasini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar orasida badiiy asarlarda uchraydigan frazeologik birliklarni tadqiq etish alohida o'rin tutadi. Xususan, Y.Pinxasov, I.Qo'chqortoyev, X.Qahhorova²⁴ kabilarning badiiy adabiyotda qo'llanilgan frazeologik birliklar tahliliga qaratilgan ishlari milliy adabiy tilning boy imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobning to'rtinchi fasli "*Qisasi Rabg'uziy*" asarida qo'llangan frazemalarning lingvostatistik tahlili va keyingi davr tiliga munosabati" deb nomlanadi. Ushbu bo'limda iboralarning lingvostatistik tahlili va keyingi davr tiliga munosabati tahlil qilingan. Ularni qo'llanilish holatiga ko'ra quyidagicha guruhlash maqsadga muvofiq:

1. Hozirda qo'llanishda bo'lmagan frazemalar. Bu guruhga jonli tilda ishlatilmaydigan yoki ishlatilishi kamayib borayotgan tarixiy frazemalar kiradi. Asar matnidan tadqiqot uchun to'plangan 881 ta frazemaning 166 tasi hozirda ishlatilmaydigan frazemalar bo'lib, bu umumiy miqdorning 18,8 foizini tashkil etadi: *tili aqir*– tili og'ir bo'lmoq; *tilga yuqul*– tilga yengil; *til alquci* – ma'lumotlarni yetkazib beruvchi (josus); *tili tebraniur* – gapira olmaslik; *ernaklarin tishla*– hech narsa qilolmay qolmoq. **2. Hech qanday o'zgarishsiz qo'llanadigan frazemalar.** Bu guruhga mansub frazemalar tildagi o'zgarishlarga qarshi turgan va adabiy tilning noyob unsurlari sifatida bugungi kungacha yashab kelayotgan iboralardir. Hech qanday o'zgarishsiz qo'llanadigan frazemalar asarda 359 ta bo'lib, bu umumiy miqdorning 40,7 foizini tashkil etadi: *köz tik-*, *jän al-*, *ahdni buz-*, *jän ber-*, *könligä kel-*, *könlü bol-*, *könlü bagla-*, *köz toy-*, *közi kör-*, *közi teg-*, *közgä il-*, *tilgä kel-*, *aqizgä tuis-*, *aqzin yüm-*, *aqzingä al-*, *aqiz aç-*, *yüz ögir-*, *yüzigä baq-*, *qolgä kir-*. **3. Ayrim tovushlari o'zgargan frazemalar.** Ayrim tovushlari o'zgargan frazeologik birliklar ma'lum bir davr davomida yoki o'zaro til o'zgarishlari natijasida shakllanib kelgan. Bu guruhga mansub frazemalar soni asarda 60 ta bo'lib, bu umumiy miqdorning 6,8 foizini tashkil etadi: *közi yaru-* – ko'z(i) yorimoq, *köz allinda* – ko'z oldida, *basdin azaq* – boshdan oyoq, *bagri köy-* – bag'ri kuymoq, *azaq(i) tart-* – oyog'(i) tortmadi, *üminç ber-* – umid bog'lamoq, *yüz evür-* – yuz o'girmoq. **4. Leksik qayta shakllangan frazemalar.** Umumiy 881 ta frazemaning 296 tasi bugungi kunda leksik jihatdan qayta shakllangan frazeologik birliklar bo'lib, bu esa umumiy frazemalar miqdorining 33,7 foizini tashkil qiladi. Tilimizdagi *qulaq qoy-* iborasining *quloq sol-*, *sözünge yet-* iborasining *gapida tur-*, *könlü tin-* iborasining *ko'ngli joyiga tush-*, *könlün qopar-* iborasining *ko'nglun ko'tar-* shakllari ham leksik qayta shakllanish natijasida yuzaga kelgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Qisasi Rabg'uziy**" asaridagi iboralarning tayanch komponentlariga ko'ra tasnifi" deb nomlanib, bobning birinchi fasli "*Somatik tarkibli frazeologik birliklar*" deb nomlanadi.

Tadqiqot obyekti qilib olingan yodgorlikda inson tana a'zolari nomlari, ya'ni somatizmlar asosida shakllangan frazeologizmlar 444 ta bo'lib, bu umumiy miqdorning 50,3 foizini tashkil etadi. Ularni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin: **köz leksemasi asosida shakllangan frazeologizmlar.** "Qisasi Rabg'uziy" asarida *köz* so'zi qatnashgan iboralarning barcha variantlarini ham inobatga oladigan bo'lsak, ularning umumiy soni 79 ta bo'lib, bu asarda qo'llangan somatik tarkibli iboralarning 17,7

²⁴ Pinxasov Я.Д. Фраzeологические выражения в произведениях Хаида Алимжана: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тошкент, 1963; Қўчқортоев И. Бадий сўз устаси [монография]: Тошкент, 1967; Каххарова Х. Фраzeология Абдулла Кадыри: Дисс. ...канд. филол. наук. – Тошкент, 1985.

foizini tashkil qiladi: **1) shaxs faoliyati bilan bog‘liqlik nuqtayi nazaridan:** *ko‘z(i) tushmoq* iborasi “bexosdan, kutilmaganda ko‘rmoq” ma’nosida izohlanadi. Bu iboraning varianti *nazar(i) tushdi* bo‘lib, u ham xuddi shunday ma’noni anglatadi²⁵. *Közi tüş-* iborasi “qaramoq” ma’nosini ham anglatadi. Bu iboraning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham ayni shu shaklda uchrashi uning uzoq tarixga ega ekanligini ko‘rsatadi: *Kimniñ közi Musāğa tüssä...* (124r287)²⁶. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llanilgan iboralar va ulardagi so‘zlarning vaqt o‘tishi bilan tilning taraqqiyot xususiyatlari natijasida o‘zgarishlarga uchraganini ham kuzatish mumkin. Rabg‘uziy ishlatgan iboralarning Alisher Navoiy asarlarida qanday tarzda ifodalanganligini o‘rganish orqali tilning rivojlanishi va o‘zgarishlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin: *közi tüş-* iborasi XV asrga kelib Alisher Navoiy asarlarida ham xuddi shu ma’noda qo‘llangan: *Fir’avnniñ közi anñ yüzigä tüşkäč...* (AHATIJL,147); **2) kishining kimnidir intizorlik bilan kutish ruhiy holati bilan bog‘liqligi nuqtayi nazaridan:** “Qisasi Rabg‘uziy” asarida *köz tik-* iborasining *köz yolğa tikib* shakli ham qo‘llangan. Bu frazema “diqqat bilan qaramoq” yoki “e’tibor bilan kuzatmoq” ma’nosini anglatib, biror narsaga yoki hodisaga katta e’tibor berishni ifodalash uchun ishlatiladi: *Köz yolğa tikib olturdi* (187v335).

“Bosh” leksemasi asosida shakllangan frazeologizmlar. Tadqiqot obyektini qilib olingan yodgorlikda *baş* komponentli frazemalar varianti va sinonimlari bilan hisoblaganda 33 o‘rinda ishlatilgan bo‘lib, bu asarda qo‘llangan somatik tarkibli iboralarning 7,4 foizini tashkil qiladi: **1) kasallik tushunchasini ifodalovchi frazemalar:** “Qisasi Rabg‘uziy” asarida *baši yastuqğa teg-* iborasi qo‘llangan gaplar ham mavjud bo‘lib, bu ibora O‘TFLda *bosh(i) yostiqa yetganda* shaklida ifodalanib, “kasal bo‘lib yotib qolganda” ma’nosini anglatadi. Varianti: *bosh(i) yostiqa tekkanda* (OTFL,101): *Mu’āviyaniñ başları yastuqğa tegdi ersä ...* (244v447); **2) jismoniy holat va harakatni ifodalovchi frazeologizmlar:** asarda *baş kötar-* iborasi qo‘llanilgan bo‘lib, bu frazema jismoniy holat va harakatni ifodalovchi iboralarning bir namunasi. Mazkur frazema “boshni ko‘tarmoq” ma’nosini anglatadi va, ko‘pincha, ma’lum bir jismoniy yoki ruhiy holatni tasvirlashda ishlatiladi: ... *barča nārsälär baş kötürüp Ādamni bizdin yaratğil, tep tama’ qıldılar* (6v15). “Qisasi Rabg‘uziy” asarida uchragan *baş kötar-* iborasini Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” asarida ham uchratish mumkin: ... *ičmiş baş kötürmäs bādadin* (AHATIJL,322).

“Til” leksemasi asosida shakllangan frazeologizmlar. Tadqiqot obyektini sifatida tanlangan yodgorlikda *til* komponenti mavjud bo‘lgan frazemalar, ularning variantlari va sinonimlari bilan birgalikda jami 36 o‘rinda ishlatilgani aniqlangan bo‘lib, bu asardagi umumiy somatik tarkibli iboralarning 8,1 foizini tashkil qiladi. *Til* leksemasining yuqoridagi xususiyatlaridan kelib chiqib, u bilan bog‘liq iboralar quyidagicha tasniflanadi: **belgi-xususiyat semali iboralar:** asarda qo‘llanilgan ... *bu qullarniñ tillari köñülläri birlä tüz ermäs* (154r275) iborasi leksik qayta shakllangan iboralardan biri sifatida hozirgi kunda *tili bilan ko‘ngli bir emas* [aytgan gap bilan qilgan ishi, maqsadi mos emas, teskari] iborasiga o‘zgargan; **holat semali iboralar:** *tili tebrän-* iborasi “Qisasi Rabg‘uziy”da uchraydigan arxaik iboralar qatoriga kirib, “g‘o‘ldiramoq” ma’nosini ifodalaydi. Ushbu ibora o‘sha davr tilida keng qo‘llangan

²⁵ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn] : lug‘at / – Ташкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.636. (Bundan keyin ushbu adabiyotdan olingan iboralarning beti o‘sha joyda katta qavs ostida ko‘rsatiladi).

²⁶ Turkiy adabiyot durdonalari. 100 jildli. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 218. (Bundan keyin ushbu adabiyotdan olingan iboralarning beti o‘sha joyda qavs ostida ko‘rsatiladi).

bo‘lib, hozirgi kunda uning o‘rnini *tildan qolmoq* iborasi egallagan. Iboraning o‘ziga xosligi shundaki, u insonning so‘zlash qobiliyatini asta-sekin yo‘qotishi holatini tasvirlash uchun qo‘llanilgan: ...*ağzında tili tebränür* (238r435).

“Yuz” leksemasi asosida shakllangan frazeologizmlar. O‘rganilayotgan obidada ushbu leksema ishtirok etgan iboralar 39 ta bo‘lib, bu asardagi umumiy somatik tarkibli frazemalar miqdorining 8,7 foizini tashkil etadi. Asarda qo‘llangan shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi *yüz* bilan bog‘liq iboralarni quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin: **1) xijolat, uyat, uyatchanliklikni ifodalovchi iboralar:** o‘zbek tilining oddiy so‘zlashuv uslubida faol qo‘llanishda bo‘lgan *yuzi qizarmoq* iborasi “nojo‘ya xatti-harakat, noqulay sharoit tufayli uyalmoq, xijolat bo‘lmoq” kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Tadqiqot obyekti qilib tanlangan asarda ana shunday “xijolat, uyat, uyatchanlik” belgisini beruvchi *meñizi qizar-*, *meñizi sarğar-* iboralari mavjud bo‘lib, bu iboralar ham xuddi *yuzi qizarmoq* kabi ma‘no ottenkalariga ega bo‘ladi: ... *sevinmişdin meñizi qizardı, aydı: ...* (187v335); *Qaçan Yā’qub yalawaç oğlanları oğrı atin eşittilər ersä küçlärer, quvvatları qalmadı, meñizlärer sarğardı, qorqtilar* (97r170); **2) norozilik ifodalovchi iboralar:** yodnomada *yüz evür-* iborasi ham qo‘llangan bo‘lib, ushbu ibora *yüz ögir-* iborasining variantdoshi hisoblanadi: *Kim bizdin yüz evürüb ketti ersä, ul bizgä kelmäsä yaxşirraq* (226v411). Rabg‘uziy asarida *yüz ögir-* iborasi ikki xil ko‘rinishda: *yüz ögir-* va *yüz evür-* tarzida qo‘llanilgan. Alisher Navoiy esa *yüz ögir-* iborasini *yüz üyür-*, *yüz evür-* shakllarida ishlatgan:

Sendin yüz üyürmək mänä mumkin yoq,

Agarçi har sārīdīn allīñgakim keldim yüz evürdīñ (AHATILI, 579).

“Qo‘l” va “barmoq” leksemalari asosida shakllangan frazeologizmlar. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida *qol* leksemasi va uning tarixiy varianti hisoblangan *ilik* shakli ishtirok etgan 35 ta ibora aniqlangan bo‘lib, ular asarda uchraydigan umumiy somatik tarkibli frazeologizmlarning 7,8 foizini tashkil etadi. Bular qatoriga *ilkingä tüşür-*, *ilik barmas*, *ilki ustun*, *ilik tart-*, *ilik sün-* va *ilikkä kir-* kabi iboralarni kiritish mumkin. Asarda qo‘llangan iboralar ifoda maqsadiga ko‘ra turli guruhlariga ajratiladi: **1) xatti-harakat ifodalovchi iboralar:** ...*ilik sünsäm Arşğa yetgäymen* (198r355). *Ilik sün-* tarixiy ibora bo‘lib, bugungi kunda bu ibora *qo‘l uzatmoq* iborasiga o‘rin bo‘shatgan. *Sün* leksemasi “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan: sun – uzatmoq, cho‘zmoq; [ilik, qo‘l] sun – ishga kirishmoq, ish boshlamoq²⁷; **2) saxiylik ifodalovchi iboralar:** *ilik açiq tut-* iborasi “saxiylik va qo‘li ochiqlik”ni ifodalovchi tarixiy frazemalar qatoriga kiradi. Bu ibora asarda o‘ziga xos ma‘noda qo‘llanib, insonning muloyimligi va saxiyligini tasvirlagan: *Mavlā ta’ātında, xalāyīqlar arasīnta ezgü muāmalat qılmaq, keñlikdä, tarlıqda ilik açuq tutmaq* (66r115).

“Yurak” leksemasi asosida shakllangan frazeologizmlar. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida *yüräk* so‘zi qatnashgan iboralar 12 marta ishlatilgan bo‘lib, ular asarda uchraydigan somatik tarkibli iboralarning 2,7 foizini tashkil etadi. Mazkur frazemalar mazmun jihatidan g‘oyat xilma-xil bo‘lib, turli-tuman ma‘nolarni ifodalashi aniqlangan: **kuchli hayajon yoki qo‘rquv kabi tushunchalarni ifodalaydi:** *yüräkləri yaril-* iborasi “qattiq cho‘chib ketmoq” ma‘nosini anglatadi. Bu ibora, odatda, kishini juda qattiq qo‘rqitish, uning ruhiy holatini izdan chiqarish yoki chuqur vahimaga solish holatlarini tasvirlash uchun qo‘llanadi. Ushbu iboradan “Qisasi Rabg‘uziy” asarida

²⁷ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. Учинчи том. – Тошент: Фан, 1983. – Б.124.

insonning kuchli hissiy kechinmalarini ifodalashda foydalanilgan: ... *on iki miñ erniñ yüräkläri yarilib öldilär* (64v112).

“Ko‘ngil” leksemasi asosida shakllangan frazeologizmlar. Asarda eng ko‘p qo‘llangan iboralar qatoriga *könjül* leksemasi ishtirok etgan iboralar ham kiradi. Ular matnda 123 marta ishlatilgan bo‘lib, somatik tarkibli frazemalarning 27,7 foizini tashkil etadi. Ushbu leksema iboralarning faol a‘zosi sifatida, asosan, quyidagi holatlarda qo‘llanadi: **ijobiy holatlarni ifodalashda:** yodnomadan olingan ijobiy ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *könjül ber-* iborasi “sevmoq” ma’nosini bildiradi. Bu frazema biror kishiga yoki narsaga ijobiy his-tuyg‘ularni, sevgi yoki e’tiborni bildirishni ifodalaydi: *Ul kün izzat kördüm, könjül berdüm ...* (109v191). Ushbu iboraning *könjül bermäslik* (e’tibor qilmaslik yoki sevmaslik) shaklidagi varianti ham mavjud bo‘lib, bu “biror kishiga yoki narsaga nisbatan e’tibor yoki sevgining yo‘qligi”ni anglatadi. *Könjül ber-* iborasini Alisher Navoiy asarlarida ham uchratish mumkin: *Sa’d bedilğa köp könjül berdi...* (AHATIJL,151); **salbiy holatlarni ifodalashda:** *ko‘ngli qattiq* iborasi “rahmshafqati yo‘q” ma’nosini bildirib keladi. Varianti: *tosh ko‘ngil; tosh ko‘ngilli; tosh ko‘ngil [ekan];* Sinonimi: *tosh yurak – yuragi tosh.* Antonimi: *ko‘ngl(i) bo‘sh, ko‘ngl(i) yumshoq – yumshoq ko‘ngil* (O‘TFL, 299). Asarda bu ibora tarkibidagi leksemalarning o‘rin almashinuvi natijasida hosil bo‘lgan *qattiq könjüllük* iborasi qo‘llangan: *Ey Azrāil, ğāyat qatīg könjüllük ermişsen* (6r15).

“O‘pka” leksemasi asosida shakllangan frazeologizmlar. *Öpkä* leksemasining qadimda *öpkä>öfkä>övkä* shakllari ham mavjud bo‘lgan²⁸. Mazkur leksemaga “Qisasi Rabg‘uziy” asarining lug‘at qismida “o‘fka” – “g‘azab”, “nafrat”, “jahl” deya ta’rif berilgan. Ushbu leksema asarda qo‘llangan *öpkäsi öç-, öpkäsi kel-, öpkäsi uç-* va *öpkäsi basil-* kabi iboralarning shakllanishi uchun asos bo‘lgan. Asarda *öpkä* so‘zi ishtirok etgan 25 ta ibora aniqlangan bo‘lib, ular somatik tarkibli frazemalarning 5,6 foizini tashkil etadi. O‘zbek tilida *o‘pkasini bosib olmoq* iborasi “insonning hissiy holatini nazorat qilish, hovliqmaslik va tinchlanishi”ni anglatadi. Asarda bu iboraning *öpkäsi basil-* shaklini uchrashimiz mumkin: ...*Yahudāniñ öpkäsi basildi...* (98v172). Ushbu ibora “biror kishining g‘azabini bosish, uni nazoratga olish”ni ifodalash uchun ishlatiladi.

Bobning ikkinchi fasli “So‘z”, “jon”, “yo‘l” tarkibli iboralar tahlili” deb nomlanadi.

“So‘z” leksemali frazeologizmlar. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida *söz* leksemasi ishtirok etgan frazemalar 48 marotaba qo‘llangan bo‘lib, ular umumiy frazemalarning 5,4 foizini tashkil etadi. Yodnomada so‘zning frazeologik guruhlariga bo‘linishi uning nutqiy faoliyat, miqdorni ifodalash, xatti-harakat yoki holatni tasvirlash kabi turli jihatlarini namoyon etadi: 1) **miqdorni ifodalash bilan bog‘liq iboralar:** so‘z bilan bog‘liq frazeologik birliklarning yana bir guruhini miqdor ifodalovchi iboralar tashkil etib, ko‘pincha, ma’lum bir miqdor yoki chegarani ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. “Qisasi Rabg‘uziy”da ham miqdor va hajmni bildiruvchi iboralar biror voqea yoki narsaning ko‘lamini tasvirlashda ishlatilgan. Oddiy so‘zlashuv uslubida faol qollaniladigan *ikki og‘iz* [ozgina, andak (“gap” yoki “gapirmoq”) iborasi mavjud bo‘lib, asardagi parchadan olingan *iki söz* iborasiga sinonim hisoblanadi. Varianti: *bir-ikki og‘iz; ikki-uch og‘iz.* Sinonimi: *ikki shingil* (O‘TFL,194): ... Bilqis haqida iki söz sözlädilär (150r268). Berilgan gapdagi *iki söz* iborasi gapda miqdor ifodalash uchun qo‘llanilgan va “so‘zlamoq” fe‘lini to‘ldirgan. Bu birlik miqdor belgisining kamligini ifodalashga

²⁸ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С.388.

xizmat qilgan; 2) **xatti-harakat yoki holatni tasvirlash bilan bog‘liq iboralar:** so‘zning frazeologik ma‘nosi ba‘zan insonlarning xatti-harakatlari, holatlari yoki fe‘l-atvoriga bog‘liq bo‘ladi. O‘rganilayotgan obidada bu turdagi iboralar qahramonlarning ichki dunyosini, ruhiy holatini yoki tashqi munosabatlarini ifodalashda qo‘llanadi: *gap talaš-* iborasi “o‘zini ma‘qullab gap aytishmoq” va, ko‘pincha, kimningdir bahslashayotganini yoki gapda o‘zining nuqtayi nazarini himoya qilishini ifodalaydi. Bu ibora asarda *söz talaš-* shaklida ifodalangan: ... *Azrāil birlä söz talašdi* (20v39).

“Jon” leksemali frazeologizmlar. “Qisasi Rabg‘uziy”da *jān* leksemasi ishtirok etgan frazemalar 47 marotaba ishlatilgan bo‘lib, ular umumiy frazemalarning 5,3 foizini tashkil etadi. Mazkur iboralar inson hayoti, ruhiy holati va o‘lim haqidagi falsafiy hamda diniy tushunchalarni ifodalaydi. **Jon va o‘lim haqidagi tushunchalar:** *jān ber-* iborasi jonli so‘zlashuv nutqida qo‘llanib, “so‘nggi marta nafas chiqarish” ma‘nosini anglatib, ko‘pincha, o‘limni ifodalash uchun ishlatiladi. Uning *jāni čiq-* yoki *jāni üzil-* kabi shakllari ham mavjud bo‘lib, insonning hayoti tugashi, ya‘ni vafot etishi bilan bog‘liq vaziyatlarni tasvirlashda qo‘llanadi. Bu ibora “Qisasi Rabg‘uziy” asarida *jān ber-* shaklida ifodalangan: *Jān bermäk qatiğliqi netäk turur?*(56v98). Bu ibora Alisher Navoiy asarlarida ham chuqur va ta‘sirchan ma‘noda qo‘llanilgan. Quyidagi satrda shoir sevgilisining firoqida jon berganligini go‘zal shakllar orqali ifodalaydi, ibora orqali insonning sevgi va sadoqatini, hatto o‘zini qurbon qilishga tayyorligini ko‘rsatadi: *Firāqında jān berdim...* (AHATIJL,589).

“Yo‘l” leksemali frazeologizmlar. O‘rganilayotgan obida tilida bu guruhga mansub iboralar 17 marotaba qo‘llangan bo‘lib, ular umumiy frazemalarning 1,9 foizini tashkil etadi. *Yol* leksemasi asosida shakllangan iboralarning asardagi diniy va dunyoviy ishlarda qo‘llanilishi quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqilishi mumkin: *köni yol* iborasi tarixiy frazeologik birlik bo‘lib, “to‘g‘ri yo‘l” ma‘nosini anglatadi va kishining hayotiy yo‘lida maqsadga erishish uchun to‘g‘ri yo‘ldan yurishi zarurligini ifodalaydi. Shuningdek, bu ibora insonning to‘g‘ri yo‘lni tanlashi va unga amal qilishining ahamiyatini ta‘kidlaydi: ...*agar täñrim mäni köni yolğa köndürmäsä yolsuzlardin bolğay erdim, tedi* (38v68). Keltirilgan parchada mazkur ibora “kishining hayotida to‘g‘ri yo‘ldan adashishi yoki uni tanlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligi”ni ham nazarda tutadi. Shunday qilib, *köni yol* iborasi tarixiy shaklda qo‘llanilgan bo‘lsa, *to‘g‘ri yo‘l* hozirgi kunda keng tarqalgan va faol ishlatiladigan frazeologik birlikdir.

Bobning uchinchi fasli “*Shaxsning ruhiy holati va diniy tushunchalar doirasida shakllangan frazeologizmlar*” deb nomlanadi.

Shaxsning ruhiy holati asosida shakllangan frazeologizmlar. Asardagi iboralarni shaxsning ruhiy holati asosida shakllanganligiga ko‘ra quyidagi toifalarga ajratish mumkin: **asarda qo‘llangan ijobiy ottenkali frazeologizmlar:** *mehri tüš-* iborasi “suyib qolmoq” ma‘nosini anglatib, biror kishining yoki narsaning boshqa bir kishiga, joyga yoki narsaga chuqur mehr bilan bog‘lanishini, ya‘ni sevgi yoki samimiy his-tuyg‘ularga ega bo‘lishini ifodalaydi. Bu ibora badiiy asarlarda keng qo‘llanib, qahramonlarning his-tuyg‘ularini yanada chuqurroq ifodalashga yordam beradi: *Māhir erän mehri tüšti...* (249v459); **asarda qo‘llangan salbiy ottenkali frazeologizmlar:** *iči yan-* iborasi “jahli chiqmoq” yoki “alami kelmoq” ma‘nolarini anglatadi. Bu ibora, odatda, kishining ichki g‘azabini, alamini yoki qattiq ruhiy azobini tasvirlash uchun qo‘llanadi. Asarda *ičimni yandurmağil* shaklida keltirilgan ibora esa tasviriy ifodaning yorqin namunasi bo‘lib, insonning ichki alamini yoki g‘azabini kuchli va aniq tarzda ifodalaydi: *Men öñundä öläyin sen ičimni yandurmağil* (50v88).

Diniy tushunchalar asosida shakllangan frazeologizmlar. “Qisasi Rabg‘uziy”da bayon qilingan qissalar Qur‘on va boshqa diniy kitoblardagi syujetlar

asosida yaratilgan. Shunga ko‘ra, asardagi diniy frazeologizmlar tarkibida ishtirok etuvchi diniy leksikani quyidagicha tasniflash mumkin: **1) narigi dunyo bilan bog‘liq voqea va joy nomlariga ishora qiluvchi frazeologizmlar:** *dunyodan ketmoq* iborasi “qazo qilmoq, o‘lmoq” ma’nosini bildiradi. Ushbu iboraning *olamdan ketmoq, dunyodan o‘tmoq – ko‘z(i)ni yummoq – nafas(i) tindi – oyog‘(i)ni uzatmoq – engak tashlamoq* (O‘TFL, 43) kabi shakllari ham mavjud. Qissada *dunyādan bar-* iborasi qo‘llangan: ... *Ey farzandlarim, māni dunyādīn bargū vaqtīm boldi* (186r332); **2) ibodat, diniy marosimlar, diniy bayramlar va boshqalar bilan bog‘liq frazeologizmlar:** “Qisasi Rabg‘uziy” asarida *roza tut-, roza ač-, ağız ač-, rozasini buz-* kabi iboralar qo‘llangan: *Tur tağinda otuz kün ulaşu roza tutdi* (120v211); *Abu Bakr birlā Umar birlā meñā aydilar, bu kečā roza bizdā ačğil tep* (241r441). *Roza ač-* iborasi diniy frazeologizmlarning yana bir yorqin misollaridan biri bo‘lib, “Ramazon oyida yoki boshqa vaqtlarda ro‘za tutishdan keyin iftor qilish”ni anglatadi.

Ishning uchinchi bobi “**Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan frazeologizmlarning struktur-semantik xususiyatlari**” deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi fasli “*Frazeologik birliklarning ko‘chim orqali ifodalanishi*” deb ataladi. Ushbu faslda metafora, metonimiya, sinekdoxa, shuningdek parafraza va so‘zlar asosida shakllangan iboralar tahlil qilingan.

Metafora yo‘li bilan ko‘chirish. *Nadāmat ye-* va *māl ye-* iboralari “*yemoq*” fe‘lini ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali hosil bo‘lgan frazeologizmlardir. *Nadāmat ye-* iborasi aslida “pushaymon bo‘lmoq” yoki “afsuslanmoq” ma’nosini anglatadi. *Nadāmat* – bu o‘z xatolarini tan olish va ulardan pushaymon bo‘lish, gunohlarni tushunib, afsuslanish holatini tasvirlaydi: *Amma bu kün Muhammad rasulullāh sallālāhu alayhi vasallam barakātīdīn ummatlarī nečākim yazuq qilsalar, bir yoli nadāmat yeb, puşaymān bolsalar...* (127v224).

Māl ye- iborasi “mol-mulkni noqonuniy yo‘l bilan egallash yoki talon-taroj qilish” ma’nosini anglatadi. Mol-mulkni qonunga xilof ravishda qo‘lga kiritish, boshqalarning mulkini o‘zlashtirish va talon-taroj qilish, ko‘pincha, yovuzlik yoki adolatsizlikning ifodasidir: *Yawlaq adl turur, ančasi bar kişilār mālin yeyür* (134v238).

Metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish. Asarda qo‘llangan *islāmğa kir-* iborasi metonimiya asosida shakllangan iboralardan biridir. Metonimiya so‘zning ma’nosini kengaytirishning bir usuli bo‘lib, bunda bir atama yoki ibora boshqa bog‘liq tushunchani ifodalash uchun qo‘llanadi. *Islāmğa kir-* iborasidagi “Islom” so‘zi aslida din nomini anglatadi, biroq bu o‘rinda “Islomga kirmoq” deganda “Islom dinini qabul qilmoq” ma’nosi nazarda tutilgan. Bu holda “Islom” so‘zi din nomi sifatida ishlatiladi va unga kirish – ya’ni dinni qabul qilish harakati sifatida tushuniladi: *Umar islāmğa kirmäk birlā musulmānliq küčlāndi* (203r366).

Sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish. *Ilkidä qal-* iborasi sinekdoxa asosida shakllangan frazeologizmdir. Bu frazema “kimgadir tutqun bo‘lmoq” ma’nosini anglatadi. *Ilik* so‘zi “qo‘l” ma’nosini bildiradi, lekin bu kontekstdagi asosiy ma’no esa “tutqunlik”ni ifodalaydi: ...*siziñ čerik sinğay, bularniñ ilkindä qalğaymiz* (229v418). *Ilkindä qal-* iborasi qahramonlarning qiyin vaziyatda qolishini ifodalaydi, ya’ni ular dushmanning qo‘liga asir tushganlarini bildiradi.

Frazeologizmlarning so‘zlar asosida shakllanishi. O‘rganilayotgan obidaning lug‘at qismida *ozmoq* leksemasiga “yanglishmoq, adashmoq, xato qilmoq” kabi ta’rif berilgan²⁹. Ushbu so‘z *yoldan az-* iborasining shakllanishi uchun asos bo‘lib, “biror ishda yoki yo‘lda adashish, noto‘g‘ri yo‘l tutish holati”ni ifodalaydi: ...*Ilyās sahrālarda*

²⁹Рағузий Носируддин Бурхонуддин. “Қисаси Рағузий” иккинчи китоб (масъул муҳаррир Н.А.Асилова; нашрга тайёрловчилар Э.Фозилов, А.Юнусов, Х.Дадабоев). – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – Б.227.

yoldin azganlarğa yol körgüzürlär (160v286). “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da *yo‘ldan ozmoq* va *yo‘ldan ozdirmoq* iboralari keltirilgan bo‘lib, ular “yomon yo‘lga kirmoq” va “aynimoq” ma‘nolarini anglatadi. Sinonimi: *yo‘ldan toymoq* – *yo‘ldan urmoq* – *yo‘ldan chiqarmoq* (O‘TFL, 586).

Parafraza yo‘li bilan shakllanish. *Ko‘zi yorimoq* iborasi o‘zbek tilida “tug‘moq” ma‘nosini anglatadi va, asosan, ayolning farzand dunyoga keltirish jarayonini ifodalaydi. Bu ibora tarixiy jihatdan qadimgi turkiy tillarda ham mavjud bo‘lib, o‘sha davrlarda ham farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalashda qo‘llanilgan. Badiiy asarlarda *ko‘zi yorimoq* iborasidan qahramonlarning hayotidagi muhim voqealarni tasvirlashda keng foydalaniladi. Mualliflar bu ibora orqali o‘quvchilarga quvonchli va baxtli onlarni yetkazadilar, shuningdek, inson hayotining yangi bosqichlarini aks ettiradilar. Buni o‘rganilayotgan obida tilida ham ko‘rish mumkin: ... *Isātek o‘g‘ul birlä köziñ yarutg‘il* (169v303); *Aniñ birlä köziñ yarursun. Baqdim ersä, o‘g‘lan tu‘g‘mish* (183v328).

Bobning ikkinchi fasli “*Iboralarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari*” deb nomlanadi. Ushbu bo‘limda iboralarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari tahlil qilingan. Bu turlar qatoriga frazeologik sinonimiya, antonimiya, polisemiya, omonimiya hamda frazeologik variantdoshlik kabilar kiradi.

Frazeologik sinonimiya. “O‘ylash”, “firklash”, “eslash” ma‘nolarini ifodalovchi iboralar asarda keng qo‘llangan bo‘lib, biror narsani chuqur mulohaza qilish, fikr yuritishga undaydi: *könliädä keč-:...kim ersäniñ könlindä kečmiş joq* (233r425); *könligä tüš-: Rasul alayhissalām vasiyyati könlümgä tüšti* (229r417); *aqlığa kel-: Tekmä bir aqlığa kelmiştä: “Atam tirik barmu?”* (224v407).

Frazeologik polisemiya. *Baş kötär-* iborasi frazeologik polisemiya (ya‘ni ko‘p ma‘nolilik) hodisasining aniq va boy ifodasidir. Ushbu ibora asarda turli kontekstlarda to‘rt xil asosiy ma‘noda ishlatilgan va bu bir iboraning turli ma‘nolarda qo‘llanilishi orqali frazeologik polisemiya holatini yuzaga keltirgan: 1) “qo‘zg‘almoq, harakatga kelmoq”: *Ey Musā, başiñ kötürgil* (127v225); 2) “ko‘rinmoq, paydo bo‘lmoq”: *Teñizdin bir baliq baş kötärdi* (138v246); 3) “kurashga chog‘lanmoq, qarshilik ko‘rsatmoq”: ... *barča närsälär baş kötürüp Adamni bizdin yaratg‘il tep tama‘ qildilar* (6v15); 4) “qad rostlamoq”: *Qamuğ tağlar baş kötärdilär, kemi bizgä tolanğay, tep.* (27r49). Bu kontekstda qo‘llangan iboradan anglashilgan ma‘no esa tog‘larning baland ko‘rinishi yoki ulug‘vorligini ifodalaydi.

Frazeologik omonimiya. Asarda qo‘llanilgan *azaqinğa tüš-* iborasi frazeologik omonimiyaning yorqin namunasi hisoblanadi. Ushbu ibora shaklan bir xil bo‘lsa-da, kontekstga qarab turli ma‘nolarni ifodalaydi: *Gāra bolmadilar, qalib Sa‘dniñ azaqinğa tüštilär* (230r419). Bu o‘rinda ibora ko‘chma ma‘noda, ya‘ni “yolvorib yordam so‘ramoq”, “iltijo qilmoq” ma‘nosida qo‘llangan; *Aydilar: Ey yigit, sen kimsen? Aydi: Men Yunus yalavačman. Kemi xalqı qamuği Yunus azaqiğa tüštilär* (156r279). Ushbu gapda esa ibora asl (to‘g‘ri) ma‘nosida, ya‘ni “yoniga bormoq”, “oldiga yetib kelmoq”, “jismoniy yaqinlashmoq” ma‘nolarida qo‘llanilgan. Har ikki holatda ham iboraning shakli bir xil, ammo semantik mazmuni butunlay farq qiladi.

Frazeologik variantdoshlik. “Qisasi Rabg‘uziy”da qo‘llangan *yumšaq köñül, rahm köñül* iboralari o‘zaro variantdosh sifatida ishlatilgan bo‘lib, kimningdir rahmdil va mehribonligini ifodalaydi: *Juvānmard, dinliğ, yumšaq köñüllük* (198v357); *Yana farištalardan Mikāilğa oxšayursan, rahm köñüllük* (222v402). Ushbu gaplarda ifodalanganidek, bunda bir obrazga asoslangan frazeologik variantlar yuzaga keladi.

Frazeologik antonimlar. *Qatiğ köñül* frazemasida *yumšaq köñül, rahm köñül* iboralari bilan birga “Qisasi Rabg‘uziy”da antonim iboralarning qanday qo‘llanilishini yanada aniqroq namoyish etib, tilning boyligini va uning badiiy ifoda vositalarini

yanada teranroq aks ettiradi: *Valekin qatig' könjüllüksen* (186r332); *Aniñ üçünkim, yumşaq könjüllüksen* (186r332); ... *Usmān yawlaq rahm könjüllük erdi* (201v363).

Bobning uchinchi fasli “*Frazemalarning struktur-grammatik tahlili*” deb nomlanadi. Ushbu bo‘limda iboralarning sintaktik tuzilishiga ko‘ra birikmaga va gapga teng shaklda namoyon bo‘lishi tahlil qilingan.

So‘z birikmasi shaklidagi frazemalar. Asarda qo‘llangan frazemalarni struktural xususiyatiga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin: **ikki komponentli frazemalar.** O‘rganilayotgan obidada bunday frazemalardan faol foydalanilgan: **ot+fe’l:** *jān al-, ahdni buz-, jān ber-, köñligā kel-, köñül bağla-, közğā il-, tilğa kel-, til ač-; **ot+ot:** *közimniñ qaračig’i, közum yaruqi, köz allında, bašdin azaq, ilik astıda, sajda içında;* **sifat+ot:** *yaman köz, alp yüräk, köni söz, qatig’ köñül, köni yol;* **son+ot:** *iki söz.**

Uch komponentli frazemalar: **ot+fe’l+ot:** *ağiz ačgu vaqt, közğā bolub totiyā;* **ot+ko‘makchi+fe’l:** *jān birlā qabul qil-;* **ot+ot+fe’l:** *köz yolğa tikib, bašlarī yastuqğa teg-;* **ot+fe’l+fe’l:** *köz yumup ačqinča;* **ot+ko‘makchi+sifat:** *til üzā yünül;* **ot+sifat+fe’l:** *tiliñ ağır bilmägäysen.*

To‘rt komponentli frazemalar: **ot+ot+ko‘makchi+fe’l:** *sözni sir içindā tutğil; tillarī könjüllāri birlā tüz ermäs.*

Besh komponentli frazemalar: **olmosh+ot+ko‘makchi+ot+fe’l:** *öz azaqin birlā ölümgā keldiñ.*

Gap shaklidagi frazemalar. 1. Ot kesimli gap shaklidagi frazemalar: *köñli yumşaq, tili bir.* 2. Fe’l kesimli gap shaklidagi frazemalar: *köñüllāri dunyāni tilā-, murādlar hāsıl bol-, bašlarī yastuqğa teg-, tiliñiz bir ermiş, tiliñ ağır bilmägäysen, azaqlarī ašaq bol-, köz toy-, közi yaru-, közi teg- va hokazo.* Bularning barchasi “Qisasi Rabg‘uziy” asarining frazeologik tarkibi naqadar boy ekanligini, u turli sintaktik qoliplar asosida shakllanganligi va tilning badiiy imkoniyatlarini yorqin namoyon etishini ko‘rsatadi.

XULOSA

1. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari o‘zbek mumtoz adabiyotining yuksak namunasi sifatida nafaqat adabiy, balki ijtimoiy, diniy va madaniy manba sifatida ham ulkan ahamiyat kasb etadi. XIII-XIV asrlardagi turkiy tillarning o‘ziga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan ushbu nodir yodgorlik eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishiga poydevor bo‘lgan asarlardan biri hisoblanadi. Asar ilk bor turkiy tilda payg‘ambarlar qissalarini yozma tarzda bayon etgan bo‘lib, diniy-ma’rifiy mazmuni, til boyligi va badiiy uslubi bilan ajralib turadi. Turkologlar va adabiyotshunoslar tomonidan bu asar leksik, morfologik, sintaktik, semantik hamda uslubiy jihatdan chuqur tahlil etilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida asardagi frazeologizmlar, arabiy o‘zlashmalar, saj’ san’ati, mifologik va ma’rifiy unsurlar xalq tafakkuri va madaniyatining boy qatlamlarini yoritishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

2. Frazeologiya dastlab adabiyotshunoslik doirasida shakllanib, badiiy matnlarni tarjima qilishda barqaror iboralarning muhimligi tufayli e’tibor qozongan. Vaqt o‘tishi bilan bu yo‘nalish tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida rivojlanib, o‘ziga xos tadqiqot obyekti, metodologiyasi va ilmiy yo‘nalishlariga ega bo‘ldi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab frazeologiyaning semantik, etimologik, struktur-sintaktik, psixolingvistik va madaniy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borildi. Frazeologik birliklar tildagi hissiy ifoda vositasi, baholovchi xususiyati, xalq donishmandligi va madaniy tajribaning ifodasi sifatida o‘rganila boshlandi. Bugungi kunda frazeologiya faqatgina tildagi barqaror birikmalarni

o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, balki ular orqali xalqning tafakkuri, madaniyati, his-tuyg'ularini ham ochib berishga xizmat qiladigan ko'p qirrali ilmiy sohaga aylandi.

3. O'zbek tilshunosligida frazeologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo'lib, uning asoslari XX asrning 40-50-yillariga to'g'ri keladi. Frazeologik birliklarning semantik, grammatik, uslubiy va funksional xususiyatlarini tahlil qilish, ularni lingvistik model asosida modellashtirish an'analari o'zbek frazeologiyasining ilmiy metodologiyasini shakllantirdi. Frazeologizmlarning badiiy adabiyotda qo'llanilishi ham alohida tadqiqot obyekti bo'lib, yozuvchilarning o'ziga xos uslubi va frazeologik vositalardan mohirona foydalanishlari o'rganib chiqildi. Shuningdek, tarjima jarayonida frazeologik birliklarning semantik moslik va ekvivalentlik asosida ifodalanishi masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunga kelib frazeologiya tilning leksik-semantik va sintaktik qatlamlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan, biroq o'ziga xos ifoda vositalariga ega mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. U xalq tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatini o'zida mujassam etgan milliy qadriyatlar xazinasini hisoblanadi.

4. Asar matnida jami 881 ta frazeologik birlik qo'llangan. Lingvostatistik tahlillar natijasiga ko'ra, frazemalarning 18,8 foizi arxaiklashgan, 6,8 foizi fonetik o'zgargan, 33,7 foizi o'zining dastlabki shaklini saqlab qolgan, 40,7 foizi esa leksik o'zgarishlar bilan zamonaviy o'zbek tilida qo'llanilayotgani ma'lum bo'ldi. Bu holat mazkur frazemalarning uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligini hamda ularning semantik barqarorligini namoyon etadi. Xususan, inson faoliyati, harakat va holat, belgi-xususiyat hamda fe'l-atvorni ifodalovchi frazeologizmlar hozirgi tilda aynan o'sha shakl va mazmunda qo'llanib kelmoqda. Shu bilan birga, ayrim frazemalar tarkibidagi komponentlarda o'zgarishlar kuzatiladi. Bunday o'zgarishlar quyidagicha izohlanadi: frazemadagi biror komponentning tushib qolishi, yangi komponentning qo'shilishi yoki mavjud komponentning sinonimik almashtirilishi.

5. "Qisasi Rabg'uziy" asaridagi frazeologik birliklarni hozirgi o'zbek adabiy tilidagi muqobillari bilan qiyoslab tahlil qilganda eski turkiy tilda ham somatik tarkibli frazemalarning keng qo'llanilgani ma'lum bo'ladi. Bu holat tilning tarixiy rivojlanishida tana a'zolari (somatic komponentlar) asosida shakllangan obrazli iboralarning o'rni muhim bo'lganligini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, asar matnida somatik tarkibli frazeologik birliklar jami 444 marta ishlatilgan bo'lib, asarda qo'llangan umumiy frazemalarning 50,3 foizini tashkil etdi. Ular quyidagi tana a'zolari nomi bilan ifodalangan: *köz* – 79 ta, *baş* – 33 ta, *ağiz* – 17 ta, *qol* – 35 ta, *yüräk* – 12 ta, *könül* – 123 ta, *til* – 36 ta, *boyin* – 13 ta, *öpkä* – 25 ta, *yüz* – 39 ta, *qol* – 35 ta, *bağir* – 4 ta, *ayaq* – 19 ta, *qaş* – 5 ta, *qulaq* – 4 ta. Bu statistik tahlillar somatik frazemalar asarda hissiy, ruhiy va ijtimoiy holatlarni ifodalashda asosiy vosita sifatida keng qo'llanilganini ko'rsatadi.

6. Asarda ko'p takrorlangan frazeologik birliklar tahlili davomida ayrim leksik yadrolar asosida shakllangan iboralarning barqarorligi va semantik yuklamasi aniqlandi. Xususan, asardagi iboralar tarkibida *so'z* 48 marta, *jon* 47 marta va *yo'l* 17 marta qo'llanilgani kuzatildi. Ushbu leksemalar asosida yaratilgan frazemalar semantik va uslubiy jihatdan boy, mazmunan chuqur bo'lib, eski turkiy til va hozirgi o'zbek tili orasidagi leksik-semantik davomiylilikni ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, ba'zi frazemalar o'z ma'nosini saqlab qolgan bo'lsa, ayrimlari leksik jihatdan qayta shakllangan holda qo'llanilayotgani ma'lum bo'ldi.

7. Shaxsning ruhiy holati va diniy tushunchalar bilan bog‘liq frazeologik birliklarni ajratib tahlil qilish natijasida tilimizda insonning ichki kechinmalari va diniy e‘tiqodini aks ettiruvchi ko‘plab frazemalar mavjudligi aniqlandi. Ushbu frazeologik birliklar inson ruhiyatini tasvirlash, his-tuyg‘ularni ifodalash va diniy e‘tiqod bilan bog‘liq tushunchalarni anglatish uchun qo‘llanadi. Ruhiy holat bilan bog‘liq frazemalar insonning ichki kechinmalarini aks ettirsa, diniy frazemalar esa e‘tiqod va axloqiy qadriyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

8. Ko‘chimlar tilda keng qo‘llanadigan, ma‘no ifodasini boyitish va kuchaytirishning samarali vositalaridan biridir. Ular frazeologik birliklar tarkibida ishlatilganda muayyan tushuncha yoki obrazni yangi, ko‘pincha, hissiy, chuqur va ta‘sirchan tarzda ifodalash imkonini beradi. Frazeologizmlarning semantik o‘zgarish jarayoni orqali bir narsa yoki hodisaning xususiyatlari boshqa narsaga majoziy yo‘sinda ko‘chiriladi, bu esa ko‘p qirrali ma‘no paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi frazeologik birliklarda qo‘llanilgan ko‘chimlar, xususan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, parafraza vositasida matn badiiy-estetik mazmun bilan boyigan. Ushbu ko‘chim turlarining tahlili frazeologizmlarning semantik tabiatini, ularning obrazlilik darajasini ochib beradi. Bu esa asarni nafaqat adabiy, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

9. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi frazeologik birliklarni shakl va ma‘no jihatidan tahlil qilish ularning lingvistik, uslubiy va semantik tizimini aniqlashga yordam beradi. Sinonimlik, variantdoshlik, omonimiya, antonimiya va polisemiya kabi munosabatlar frazeologizmlarning til tizimidagi murakkab o‘rmini, mazmun shakllarining o‘zgaruvchanligini hamda ularning nutqdagi vazifaviy imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi.

10. Asar matnida qo‘llanilgan frazeologik birliklar struktur-grammatik jihatdan, asosan, so‘z birikmasi va gap shaklida namoyon bo‘ladi. Ular shaklan turli komponentlardan tashkil topgan bo‘lsa-da, semantik jihatdan yaxlit, barqaror va ko‘chma ma‘noli birliklar hisoblanadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, asarda uchraydigan frazeologizmlarning asosiy qismini so‘z birikmasi ko‘rinishidagi frazemalar tashkil etadi. Ushbu frazemalarning tuzilish xususiyatlariga ko‘ra ikki, uch, to‘rt va besh komponentli frazemalarga ajratilishi tildagi ifoda shakllarining murakkabligini ko‘rsatadi.

11. Tahlilga tortilgan frazeologik birliklar orasida gap shaklidagi frazemalar alohida e‘tiborga molik bo‘lib, ular struktur jihatdan ot kesimli va fe‘l kesimli gap frazemalari tarzida namoyon bo‘ladi. Ushbu birliklar barqaror sintaktik tuzilma, yaxlit semantik mazmun hamda emotsional obrazlilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, fe‘l kesimli gap shaklidagi frazemalar son va qo‘llanish faolligi jihatidan ot kesimli gap shaklidagi frazemalarga nisbatan ustunlik qiladi. Buning asosiy sababi, fe‘l kesimli frazemalarning harakatni, holatni, munosabatni yoki kechinmani bevosita ifodalashga moyilligi bilan izohlanadi.

**ONE-TIME COUNCIL BASED ON THE SCIENTIFIC COUNCIL
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AT
FERGHANA STATE UNIVERSITY**

FERGHANA STATE UNIVERSITY

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA

AN INVESTIGATION OF PHRASEMES USED IN “QISASI RABGHUZI”

10.00.05 - Languages and Literatures of the Peoples of Asia and Africa

ABSTRACT

of the dissertation for the degree of doctor of philosophy (PhD) in Philological Sciences

Fergana – 2025

The theme of the doctor of philosophy (PhD) dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of the Ministry of the Republic of Uzbekistan under the number № B2023.4.PhD/Fil4010.

The dissertation has been prepared at Ferghana State University.

The abstract of the PhD dissertation is posted in three (Uzbek, English and Russian (Resume)) languages on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and on the website of "Ziyonet" information and educational portal (www.ziyonet.uz)

Scientific supervisor:

Rozikova Gulbakhor Zaylobidinovna
Doctor of philological sciences, professor

Official opponents:

Abdushukurov Bakhtiyor Buronovich
Doctor of philological sciences, professor

Mamatov Abdug'afur Eshonqulovich
Doctor of philological sciences, professor

Leading organization:

Urgench state university

Defense of the Dissertation will take place on "13" 09 2025, at 8:00 p.m. at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Ferghana State University (Address: 105, B.Marginoniy Street, Ferghana, 100151. Tel: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertation could be reviewed at the information resource centre of Ferghana State University (registration number 065). Address: 19, Murabbiylar Street, Ferghana, 100151, Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertation abstract sent out on "02" 09 2025.

(Mailing report number 45 on "02" 09 2025).



A.G.Sabirdinov
Chairman of the one-time council based on the scientific council awarding scientific degrees,
Doctor of philological sciences, professor

M.T.Abdupattoyev
Secretary of the one-time council based on the scientific council awarding scientific degrees,
Doctor of philological sciences, professor

M.Y.Mamajonov
Chairman of the seminar at the one-time council based on the scientific council awarding scientific degrees,
Doctor of philological sciences, professor

INTRODUCTION (abstract of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In global linguistics, extensive research is being conducted on the history of language, its stages of development, and the social and spiritual significance of views reflected in ancient written monuments. In this field, scholars pay great attention to analysing the relationship between language and culture, as well as the changes in language as reflected in historical written sources. In particular, in-depth studies are being carried out in the direction of investigating the linguistic features of ancient written monuments. From this perspective, examining the phraseological units used in historical texts is considered especially important. In this regard, compiling explanatory dictionaries of phraseological expressions found in historical works holds significant practical value for the development of the field.

In world linguistics, an in-depth analysis of the formation of phraseological meaning has been carried out with the help of cognitive foundations and conceptual approaches. This is because the study of phraseological units from both synchronic (modern) and diachronic (historical) perspectives makes it possible to gain a broad understanding of their place and development within the linguistic system. However, phraseological units found in historical sources—particularly the expressions in the work *Qisasi Rabghuzi* have not been sufficiently investigated in linguistics. Examining their semantic and grammatical features, as well as their relation to the modern Uzbek language, carries significant theoretical and scholarly importance in analyzing the historical development of our language, the semantic properties of phraseological units, and the structural-semantic changes within the linguistic system.

In Uzbek linguistics, a number of studies have been conducted on Nosiruddin Rabghuzi's "*Qisasi Rabghuzi*", yet a comprehensive and in-depth linguistic analysis of this work is still ongoing. This work is significant not only as a reflection of the literary language of the 13th–14th centuries but also as an ancient written monument that illuminates the overall development of Turkic languages. In Uzbek linguistics, particularly in the field of phraseology, much attention is devoted to studying the linguistic features of sources from this period and to analyzing the evolutionary process of the language by comparing them with modern Uzbek. This opens new directions for future research, such as the creation of historical phraseological dictionaries and the study of the development of phraseological units on a diachronic basis. As noted, "...it is necessary to strengthen the awareness of our national identity, to study the ancient and rich history of our Motherland, to intensify scholarly research in this regard, and to comprehensively support the activities of scholars in the humanities"¹. From this perspective, the investigation of phraseological expressions in the texts of Turkic literary-historical monuments that emerged in the literary environment of the Golden Horde is of great importance from both theoretical and scientific standpoints. Indeed, "the history of the Uzbek language, belonging to the great

¹ President of the Republic of Uzbekistan Shavkat M. Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis on December 28, 2018, titled "The Pace of Our Path of Development Will Further Accelerate" // *Khalq So'zi*, December 29, 2018.

family of Turkic languages, is closely connected with the centuries-old past of our people, with their aspirations and ideals, their struggles and triumphs. Our ancestors, our forefathers, expressed themselves to the world precisely through their mother tongue, and they created great cultural achievements, significant scientific discoveries, and brilliant works of art in this language”². Therefore, the study of the language of ancient written monuments necessitates deep research grounded in modern approaches. However broad the scope of such investigations may be, they cannot be said to have fully revealed the general and specific aspects of linguistic units, which constitute the primary object of study in linguistics. In particular, a monographic investigation of the phraseological units employed in Qisasi Rabghuzi, their distinctive features, and the relations they enter into with other linguistic units, and analysing from both theoretical and practical perspectives, determines the relevance and significance of this research topic.

The present dissertation research, to a certain extent, serves the implementation of the tasks set forth in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 20, 2020, No. PF-6084 “On measures for the further development of the Uzbek language and improvement of language policy,” and January 28, 2022, No. PF-60 “On the development strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; as well as in the Resolutions of February 17, 2017, No. PQ-2789 “On measures for the further improvement of the activities of the Academy of Sciences, and the organisation, management and financing of scientific research”; May 24, 2017, No. PQ-2995 “On measures for the further improvement of the system of preservation, research and promotion of ancient written sources,” October 4, 2019, No. PQ-4479 “On the wide celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan “On the State Language”, and other regulatory legal documents related to this field of activity.

The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technologies. This study was carried out within the framework of the priority direction of the development of science and ethnology of the republic I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state".

The scope of the study of the problem. Extensive scholarly research has been conducted by Uzbek and foreign scholars on the relatively complete manuscripts of Qisasi Rabghuzi. A significant part of this scientific heritage has been studied by prominent Russian, Turkish, Uzbek, and other foreign turkologists such as N.F.Ostroumov, P.M.Melioranskiy, N.F.Katanov, Y.Shinkevich, Abdurauf Fitrat, S.Y.Malov, U.Mirzakarimova, B.Sarimsoqov, A.Hayitmetov, E.Fozilov, I.Hakkulov, I.Ostonakulov, T.R.Khujayev, M.Jurayev, Aysu Ata, H.Dadaboyev,

² President Shavkat Mirziyoyev’s speech at the solemn ceremony dedicated to the 30th anniversary of the Uzbek language being granted the status of state language // Khalq So’zi, October 22, 2019.

N.Khusanov, A.Khaliullina, A.Abrajeyev, B.Abdushukurov, P.Zohidov, N.Jabborov, Sh.Turdimov, M.Jurayeva, Z.Shukurova, D.Sagdullayeva³.

In world linguistics, scholars such as Sh.Bally, L.P.Smith, N.M.Shanskiy, S.G.Gavrin, V.P.Zhukov, V.L.Arkhangel'skiy, R.N.Popov, V.V.Vinogradov, B.A.Larin, Y.D.Polivanov, V.N.Teliya, A.V.Kunin⁴ introduced the idea of phraseological meaning into the field, distinguishing it from lexical meaning and further developed it.

In the formation of Turkic phraseology, the scientific research of linguists such as Mirza Kazimbek, Y.D.Polivanov, B.Chuponzoda, S.K.Kenesboyev, Sh.U.Rahmatullayev, B.Chobanzade, F.Agayev, A.Abdullayev, M.Kholiqova,

³Остроумов Н. Труды студентов. – Казан: Университетская типография, 1874; Мелиоранский П.М. Сказание о пророке Салихе (Из Кысасу-ль-Энбия Рабгузи) // المط فريدة – Сборник статей учеников профессора барона Виктора Романовича Розена ко дню двадцатипятилетия его первой лекции, 13 ноября 1872. СПб. Санктпетербургъ, 1897. – С.298-308; Катановъ Н.Ф. Мусульманские легенды. Тексты и переводы // Записки Императорской Академии наук. Т.75. Санктпетербургъ, Приложение, 1894. – №3. – С.1-44; Schinkewitsch Y. Rabguzis Syntax. – MSOS II. 1926; Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент-Самарқанд: Ўзнашр, 1928; Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд (Нашрга тайёрловчи О.Хамроева). – Тошкент, 2013; Малов С.Е. Мусульманские сказания о пророках по Рабгузи // Записки коллегии востоковедов при Азиатском музее АН СССР. Том V. Л.: Издательство АН СССР, 1930. – С.507-525; Мирзакаримова У. Морфологические особенности “Кисаси Рабгузи”: Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1969; Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётисида сажъ. – Тошкент: Фан, 1978; Ҳайитметов А. Ўзбек насри ҳақида. – Тошкент: Фан, 1982; Фозилов Э.И. XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили (Морфология). – Тошкент: Фан, 1986; Ҳаққулов И. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Юлдузча, 1989; Останақулов И. Қисас-ар-Рабғузий – адабий асар: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Хўжаев Т.Р. XV аср биринчи ярми ўзбек адабиёти ва фольклор: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1996; Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналарининг тарихий асослари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 1996; Aysu Ata. Nasriddin bin Burhaneddin Rabguzi. Kasasu'l-Enbiya. – Ankara, 1997; Дадабоев Х. “Кисаси Рабғузий”нинг лексик хусусиятлари ҳақида // Марказий Осиё олимларининг ўрта аср илмларига қўшган ҳиссаси. – Тошкент, 1999. – Б.17-23; Дадабоев Х. “Кисаси Рабғузий”даги аёл семали лексемалар хусусида // Филология фани: янги аср муаммолари. – Тошкент, 2003. – Б.125-128; Дадабоев Х. “Кисаси Рабғузий” тилидаги туркий лексемалар семантикаси // Второй международный тюркологический конгресс. Современная тюркология: теория, практика и перспективы. I. Болим. Туркестан, 2006. – Б.90-93; Дадабоев Х. “Кисаси Рабғузий”да қўлланган *saṭ* феълнинг семалари хусусида // Ўзбек тилшунослиги масалалари (Илмий мақолалар тўплами). – Тошкент, 2006. – Б.22-25; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2000; Халиуллина А. Графо-фонетические и морфологические особенности тюркоязычного письменного памятника XIV в. “Кысас ал-анбия” Насреддина Рабгузи: Автореф. ...дисс. канд. филол. наук. – Казань, 2002; Абражеев А. Сложные предложение (гипотаксис) в прозе “Кисасул-анбия” Рабгузи – писателя XIV века. Труды Узбекского государственного университета. – Самарканд, Вып. – №73. – С.125-140; Абдушукуров Б. “Кисаси Рабғузий” лексикаси. – Тошкент: Akademiya, 2008; Абдушукуров Б. “Кисаси Рабғузий” лексикаси: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Зоҳидов П. Рабғузий саодати // Тафаккур журнали, 2008. – №1. – Б.74-81; Зоҳидов П. Кун туғардин кун ботарга сўзи етган зот // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2017. – №9. – Б.2; Жабборов Н. Маърифат надир? – Тошкент: Маънавият, 2010; Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012; Жўраева М. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси: Филол. фан.б. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Shukurova Z. “Qisasi Rabg‘uziy” asari tahlili va matniy tadqiqi. – Toshkent: Yashil yarroq, 2021; Сагдуллаева Д. “Кисаси Рабғузий” асарида арабий жумла ва ўзлашмаларнинг структур-семантик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2021.

⁴ Bally Ch. *Precis de stylistique*. – Geneve, 1905; Балли. Ш. Французская стилистика. – М., 1961; Smit.L.P. Фразеология английского языка. – М.: Учпедгиз, 1959; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1969; Гаврин С.Г. Заметки по теории фразеологии // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц: Мат-лы межвуз. симпозиума. – ТГПИ. 1972. – Вып. – №2. – С.127-142; Жуков В.П. Об устойчивости и вариантности на семантическом уровне // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц. Мат-лы межвуз. симпозиума. ТГПИ, 1972. – С.20-29; Архангельский В.Л. О задачах, объектах и разделах русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц. Мат-лы межвуз. симпозиума. ТГПИ, 1972. – Вып. – №2. – С.155-194; Попов Р.Н. Словообразование на почве фразеологических единиц // РЯНШ, 1973. – №5. – С.2-8; Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977; Ларин Б.А. Очерки по фразеологии. – М., 1977; Поливанов. Е.Д. Страницы жизни и деятельности. – М., 1988. – С.99-100; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа – Языки русской культуры, 1996. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа, Дубна: Изд. центр Феникс, 1996.

X.Shamsiddinov, A.Mamatov, K.Bozorboyev, A.Abdusaidov, B.Jurayeva, Sh.Abdullayev, B.Yuldoshev, M.Vafoyeva, G.Ismoilov, Sh.Ganiyeva, I.Urazova⁵ holds particular significance.

